



ISSN 2181-7138



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2023

6/6-сан

*Ўзбекистон Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гууалық берилген.*

Нөкис



6/6-сан 2023

декабрь

Шөлкемлестиріушілер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендируі Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Мавлюда АЧИЛОВА
Нуриддин АЧИЛОВ
Тўлкин АЛЛАЁРОВ
Марифжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОЙЛОВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Меҳри НАРБАШЕВА
Хушбох НОРБУТАЕВ
Улфат МАҲКАМОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Нуржан МАТЧАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Шахсанам МАТУПАЕВА

Лобар МУХТОРОВА
Камаладин МАТЯКУБОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Сайёра РАХМОНОВА
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Қаххор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Қуанишбек ТУРЕКЕЕВ
Гулноз ТУРАЕВА
Гулмира ТОЖИБОЕВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Дилбар ҚАРШИЕВА
Воҳид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Дилбар ҚОДИРОВА
Ризамат ШОДИЕВ
Абдушукур ШОФҚОРОВ
Дилфуза ШАББАЗОВА
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ



МАЗМУНЫ



ТИЛ ҲАМ ӘДЕБИЯТ

Қабулова М.Т. Оқыўшылардың аўызеки ҳәм жазба сөйлеў тилин диктант жаздырыў арқалы жетилистириў	8
Ергашова С. Эшқобил Шукур лирикасида бадий образ такомили	13
Матмуратова Р.З. Қорақалпоқ комедиясининг шаклланиши ва ривожланиш босқичлари масаласи	20
Расулова Р. Адабий таълимда интегратив ёндашув	24
Халмуратова М.Т. Особенности обучения русскому языку студентов медицинских вузов в группах с неродным языком обучения	28

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Alauatdinov S. Jaslardin jamiyetlik liderlik kompetentligini rawajlandirwga qaratilgan jaña imkaniyatlar	31
Абдимуратова Н.П. Жас аўладты ҳақғай ҳәм туўры сөзлиликке тәрбиялаў	36
Primbetov Q. Talabalarni tarixiy arxitektura yodgorliklari orqali ma'naviy axloqiy tarbiyalashning hozirgi kundagi ahvoli	40
Kurbanova A.O'. Umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish tizimi	45
Sariyeva E'.M. Madaniy turizm orqali talabalar ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasini takomillashtirish bo'yicha xorijiy tadqiqotlar tahlili	50
Raxmatov U.E. Integrativ yondashuv asosida biopolimerlar mavzularini o'qitish metodikasini takomillashtirish	55
Hayitov M.R. Tarbiya koloniyasi o'quvchilarining biologiya fanidan kreativ qobiliyatlarini shakllantirish	62
Ishanov A.A. Sutmizuvchilar sinfidan o'rin olgan mavzularni o'qitishda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar	68
Kurbanov O.X. Prezident maktablarida iqtidorli o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish metodikasi	76
Қодиров Н.Э. Индивидуал ёндашув асосида талабаларнинг лойихалаш-конструкторлик компетенцияларини ривожлантириш - педагогик муаммо сифатида	81
Mavlonov Sh.Sh. O'quvchilarni tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanishga o'rgatishning psixologik-pedagogik aspektlari	88
Нуриддинов Ш. Ш. Мухандислик йўналиши талабаларини инновацион ёндашув асосида касбий компетентлигини ривожлантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари	94
Shodmonova Z.B. Talabalarini ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash pedagogik zaruriyat	99
Begmatova S. Guruh rahbarining faoliyatida pedagogik mahoratning tutgan o'rni	110
Teshaboyev A.Yu. O'quvchilarning ijodiy faoliyati samardaorligini oshirishshda ta'lim texnologiyasini diagnostika qilish	117
Teshabayev A.G., Djumayev M. I. Axborot texnologiyalarini oqitishda innovasion yondashuv	126
Abdurasulova Sh.K. Integrativ yondashuvlar asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish asoslari	134
Allambergenov A. J. Talabalarning individual rivojlanish trayektoriyasini funksional boshqarishda tutorlik faoliyatining ahamiyati	140
Samadova M.X. Oliy ta'lim tashkiloti va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi samarali ijtimoiy sheriklikning ahamiyati hamda yo'nalishlari	143
Raxmatullayeva A.Q. Biologiya o'qitishda o'quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etish	149
Solixojayeva D.A. O'quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	154
Исмаилова З. К., Tengelova Sh.I. Талаба-ёшлар ижтимоий фаоллигини ривожлантиришда миллий қадриятларнинг аҳамияти	161



mmataliyev D.O., Eshbekova G.X. Umumta'lim maktablari o'quvchilariga individual yondashuv asosida xorijiy tilni o'rgatish – pedagogik muammo sifatida	165
Xushnayevo O.A. Bo'lajak muhandis-o'qituvchilarni ijodiy loyihalash faoliyatiga tayyorlashning tadqiqot metodologiyasi	172
Azimov A.T., Tairova N.S. Chizma geometriya amaliy darslarida multimediyali animatsiya materiallarini qo'llash	178
Doniyorova Sh.Sh. Oliy ta'lim talabalarining xalqarolashuvida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish	182
Bo'riboev A.Yu. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida "4+2" tartibidagi amaliyotning roli	188
Maxmudov U.M. Qurolli kuchlarimizda olib borilayotgan tizimli islohatlar yoshlar o'rtasida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish omili	193
Boymatova M.R. Shaxs hissiy jarayonlari va uning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri	199
Bolliyev K.E. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining texnologik kompetensiyasini shakllantirish modeli	206
Ibragimov A.J. Kursantlarda harbiy qadriyatli munosabatlarni shakllantirishda jangovar navbatchilikni o'tash va turli xizmat vazifalarini bajarishdagi ahamiyati	213
Genjemuratova G.P. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga kimyo fani o'qituvchisi kasbiy mahoratining metodik tarkibiy qismlari	219
Genjemuratova G.P. Oliy ta'lim muassasalarida organik kimyo fanini integrativ yondashuv asosida kasbiy tayyorlash mazmuni	224
Xaitmetov F.R. O'qituvchilarni dars o'tishi va talabalarni darsga jalb etishni, pedagogik ahamiyati va uslubiyati	231
Qo'ng'irotova A.I. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy asoslari	239
Raxmatova F.M. Texnik ta'lim tizimida loyihalash kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirish	244
Shamsitdinova B.M. Ta'lim muassasasini boshqarishda rahbar innovatsion faoliyatini rivojlantirish yo'llari	249
Raxmanova D.U. Talabalar intellektual faoliyatini optimallashtirishning psixologik determinantlari	256
Kaxxorova M. Ta'lim samaradorligi omili	264
Okbayeva N.U. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda axborot – mantiqiy modellashdan foydalanishning ahamiyati	269
Aslonova O. P. Rivojlantiruvchi ta'lim modellarini variativ loyihalash	273
Turgunov B.Ÿ. Masofaviy ta'lim tizimida Ÿkitişni axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari	277
Imomov M.П. Ÿquvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari	282
Usmonova D. Pedagogikada tarbiya usullari va shakllari ham metodlari	288
Xushmatova N. Talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari	294
Shamuratova E.A. Akademik litsey o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning amaliyotdagi holati	298
Sunshiev Ж. Обучение на основе современных инновационных образовательных технологий в преподавании истории в вузах	304
Adilova Yu. Sh. Dual ta'lim tizimi mutaxassislarini tayyorlash uchun asos sifatida	309

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИК ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Yulmatov Sh.A. G'arezsizlik jillarında Tórtkúl qalası infrastrukturasınıń rawajlanıw tariyxı	314
Қабулова М. Қазақстан баспа сөзі екінші жер жүзлік урыс жылларында	318
O'tayev A.Yo. Siyosiy pedagog kadrlar tayyorlashning milliy manbalari	325
Suyenshiev J. Tarix fanini zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalar asosida o'qitish	329
Saloxiddinov N.F. Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o'quvchilari kasbiy tayyorgarligining tarixiy tahlili (1943-1960 yillar)	333



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Niyazov J.A. Elektroenergetika ta'limda zamonaviy didaktik interfaol dasturiy tizimlarni rivojlantirishning nazariy tahlili	340
Ernazarov Z. N. Axborotlashtirish sharoitida oliy ta'limni rivojlantirishni boshqarish bo'yicha tadqiqotlarning hozirgi holati va muammoli yo'nalishlari	347
Киличев Н.А. Аxborot технологиялари фанида талабаларнинг билиш мустақиллигини ривожлантиришда фойдаланиладиган тамойиллар тавсифи	355
Sobirova O.Sh., Ergashev Sh.N. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida axborot texnologiyalaridan foydalanish	362
Rajabov A.X. Iqtisodiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning excel dasturida statistik funksiyalar bilan ishlash ko'nikmasini oshirish CPЗНАЧ va CPЗНАЧА funksiyalari misolida	366
Abdurazzoqov I.R. Umumta'lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini xorijiy davlatlar tajribasi asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish	371
Zoxidov J.B. Ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan asosiy web-yo'naltirilgan platformalarning xususiyatlari	376

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Abdullayeva L.B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish	382
Turobov M. S. O'quvchilarining matematik qobiliyatlarini rivojlantirishda idrok etishni rivojlantirish komponenti	387
Xabibulloyev A.O. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy metodik va me'yoriy asoslari	393
Yuldashev S.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik tafakkurini rivojlantirishning ilmiy- nazariy asoslari	399
O'tayev A.Yo., Raximova L. B. Boshlang'ish sinf o'quvchilarida axloqiy fazizilatni shakllantirish xususiyatlari	408
Abdullaeva G. A. Badiiy asarlar tahlili asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ifodali va izohli o'qishga o'rgatish metodikasini takomillashtirish	412
Abdullayev B. M. Imkoniyati cheklangan boshlang'ich sinf o'quvchilarida huquqiy madaniyatni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari	418
Yuldashev S.N. Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy aspektlari	422
Ziyodullayeva S.Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yetakchilik nazariyasining shakllanishi	427
Kochqarova Sh. S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining motivatsiyasini kuchaytirishning didaktik xususiyatlari	430
Xalmatova N.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsdan tashqari vaqtda jismoniy faolligi tartibini optimallashtirish usullari	439
Begmatova G.H. Kollaborativ o'qitish texnologiyalari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish	444
Suyunova M. A. Maktabgacha yoshidagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirishning shakl, metod va vositalari	450
Muhammadiyeva G. Z. Boshlang'ich sinf darsliklarida maqollarning pirls tadqiqoti darajasidagi tahlili	457
Eshchanova G.O. Tez aytishlar va ularning kichik maktab yoshidagi bolalar nutqini o'stirishdagi o'rni	464
Kalendarova Z.K. Differentsial ta'lim orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	469
Бахтиярова Н. Дидактик ва компьютерли ўйинлар ёрдамида болаларнинг элементар математик ривожланиши бўйича фаолиятни ташкил этиш	475
Кабирова Н. Х. Применение дидактических игр при обучении математики	490



ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Ibadullayeva Sh., Umedov Sh. Miniatyura san'ati va uni chizishda kompozitsiyaning asoslari	495
--	-----

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲАМ СПОРТ

Toylibaev S.M., Akmanova D.A. Velosportshilarning baslang'ish tayarlik basqishida tezlik sipatin rawajlandiruv usullari	500
Berdimuratova J.J. Awir atletikashilarning fizikalik sipatlarina qisqashsa minezleme ham olardi rawajlandiruv usullari	506
Sul'tamuratov D.J. Milliy g'restning qisqasha tarihi - oning texnikasi ham taktikasining aybiri o'zgarishlari	512
Pleuv B. Hozirgi bosqichda g'andbol sportining rivojlanish muammolari va istiqbollari	518
Turg'unov B.O'. Jismoniy madaniyat sohasida pedagog o'qituvchilarning psixologik-pedagogik bilimlarini integratsiya	522
Esniyazov A. M. Esh voleibolchilarning innovatsion endashuv asosida mashg'ulot jarayoni tashkil etish	528
Sultonov B.A. Futbol o'yinchilarning maydondagi harakatlari	534
Jumadurdiyev B.X. Kurash sportining o'rni	538
Quvondiqov A.T., Amirova S. O'quvchilarning ma'naviy tarbiyalashda jismoniy madaniyat va sport tadbirlarining o'ziga xos xususiyatlari	544
Abdulkarimov N. A. Maktab o'quvchilarda harakat qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini takomillashtirish tamoyillari	549
Norqulov Sh. M. Maktab o'quvchilarning qo'l to'pi mashg'ulotlarida tezkorlik va chaqqonlik jismoniy sifatlarini rivojlantirish	556
Xaydarov I. S. Yosh voleibolchilarning rivojlanishi va harakat qobiliyatlarini oshirishda o'quv-mashg'ulotlarini tashkil etish	560
Juraeva A. M. Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarga ta'sir k'rsatuvchi omillar	567
Komilov A. Kurashish qoidalar va xususiyatlari	572
Juraeva A. M. "Jismoniy tarbiya" mashg'ulotining nazariy bilimlarini o'zlashtirishda innovatsion texnologiya usullaridan foydalanish	576
Xaydarov I. S. Voleibolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish usullari	580
Rahimberdiyev J. H. Oliy ta'lim tizimida - kurash sport turining tarbiyaviy vosita ekanligini talaba-shag'irlarga o'rgatish muammolari	585
Shamuratov A. A. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarning sport o'yinlari orqali jismoniy tayyorgarliklarini rivojlantirish	590
Artikov A. A. Sport o'yinlarida mashg'ulot mashqlari yuklamasining kattaligi va shiddatini tahlil qilish texnologiyasi	595
Moiseva M., Artikov F., Kodirov M. Turli eshdagi futbolchilarning t'pni oshirish berishdagi a'niqlik darajasi	605
Xamdamov R. M., Shayxmitov R. S., Dachev O. V., Ibrayeva M. T. Yoki matakali futbolchilarning tayyorgarlikda mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilishning innovatsion texnologiyalari	612
Turdiyev I. X. Yosh futbolchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlari	618
Mirqosimov M. M. Amputant sportchilarning tayyorgarligini rejalashtirish	627
Yo'ldashov M. R. O'rtacha vaznga ega insonlarning salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya va sport vositalaridan foydalanish samaradorligi	632
Qutlimuratov I. X. Futbol hakamlarining psixologik tayyorgarligini inobatga olgan holda chidamkorligini oshirish yo'llari	636



Қасимов О.О. “Sport menejeri” professiogrammasi mutaxassislarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning zaruriy sharti sifatida	640
Бегимқulov З.А. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya yo’riqchilarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning dolzarbligi	651
Asqarov F.A. Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisida kasbiy odob malakalarini shakllantirishning maqsad va vazifalari	657
Qodirov J.M. Jismoniy tarbiya fani o’qituvchisining shaxsiy va kasb faoliyati hususiyatlari	666
Эгамбердиев Р. Н. Повышение двигательной активности юношей призывного возраста в учебных заведениях	678



TALABALAR INTELLEKTUAL FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Raxmanova D.U.


*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: intellekt, aql, aqliy faoliyat, tafakkur, intellektual operatsiyalar, malaka, ko'nikmalar, falsafa, psixologiya, pedagogika.

Ключевые слова: интеллект, разум, мыслительная деятельность, мышление, интеллектуальные операции, компетентность, умения, философия, психология, педагогика.

Key words: intelligence, mind, mental activity, thinking, intellectual operations, competence, skills, philosophy, psychology, pedagogy.

Kirish. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini, raqobatbardosh malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, oliy ta'lim tizimida kadrlarga bo'lgan ijtimoiy buyurtmasi, fan va texnika yutuqlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Malakali mutaxassis qachon tayyorlanadi, qachonki kreativ fikrlaydigan yoshlar salohiyati va iqtidori rivojlantirilsa. Kreativ fikrlash talaba shaxsida intellektni rivojlanganligiga bog'liq. Intellekt lotincha so'z bo'lib, bilish, tushunish, idrok qilish ya'ni insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash hamda psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Intellekt saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlar asosida aniqlanadi. Intellekt bu inson va hayvonlarni yangi muhitga moslashishi hisoblanadi. Aql, insonning fikrlash qobiliyati bo'lib, "anglash, tushunish degan ma'nolarda keladi. Tushunib etish aqliy qobiliyatning mustahkam tuzilmasi hisoblanadi. Aqliy faoliyatlar tizimi orqali muammolarning echish uslubi,



stegiyasi, kognitiv uslub, vaziyatga individual yondashuvning samaradorligi orqali erishish mumkin. Bu aqliy faoliyatlar, turli xil muammolar va vaziyatlarni individual, samarali yondashish, ijodiy topshiriqlar va ijtimoiy-madaniy hayotga faol qo'shilish qobiliyatidir. Intelлектning tuzilishi quyidagilarga bog'liq:

- Insonning emotsional-irodaviy xususiyatlari;
- amaliy va nazariy o'zaro munosabatlar qobiliyati;
- uning hayotiy sharoitlari va hokazo.


Intelлект - tafakkur -tushunish, tushunib etish - aqliy qobiliyatlar, "idrok qilish faoliyati jarayoni", tushunish, mulohaza qilish, aqliy xulosa chiqarish yordamida idrok qilish idrok qilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, u shaxsdan "tushunish va fikrlash qobiliyati" ni talab etadi. Uzoq asrlar davomida Sharq mutafakkirlari va G'arb olimlari yoshlarda aqlning ya'ni intellekt rivojlanishiga oid mutaasil ilmiy-falsafiy munozaralar yuritishgan. Biroq ilmiy bahslar qanchalik darajada keskin yoki murakkab bo'lmasin, ularda o'ziga xos mutlaq yakdillik mavjud. Intelлект shaxsgagina xos bo'lgan xususiyat sanaladi. Ayrim adabiy yoki fantastik asarlarda insondagi ong va tafakkur badiiy to'qima yoki fantastik uydirma degan g'oyalar ham paydo bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sharq olimlaridan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Kaykovus, A.Navoiy va boshqalarning pedagogik qarashlarida talaba-yoshlarda intellekt rivojlanishiga oid ilmiy farazlar ilgari surilgan. Dunyoda "ikkinchi muallim" taxallusini olgan buyuk olim Forobiy "Baxt saodatga erishuv yo'llar haqida risola" asarida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlariga ajratish, bunda u, kishilarning diniy mas'habi, millati, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyati, qobiliyati, aqliy iqtidori, bilim ko'nikmalariga e'tibor berishlik zarurligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, talabalarda ijodiy qobiliyat va aqliy salohiyatni oshirish orqali ta'lim sifatiga erishiladi. Bo'lajak pedagoglarda intellekt qay darajada rivojlansa, pedagogik faoliyati samarali amalga oshadi. Beruniy inson va axloqiy tarbiya xaqida fikr yuritarkan "Insonga er yuzini obod etish va uni boshqarib turishi uchun aql zakovat ato etilgan, shuning uchun har bir inson yuksak axloqli bo'lishi lozim"-deydi.

Ibn Sino "Hay ibn Yaqzon" asarida ilm-ma'rifatni o'rganish, tafakkur qilib zarur bo'lgan va bilishi mumkin bo'lgan narsalarni o'qishga kirishgani, bu yo'lda aqlni ishga solib, o'zini yomonliklardan chetlashtiradigan turli xususiyatlarini bilib olganligini qayd etadi. Shuningdek, insondagi yomon illatlarni ham bartaraf etishda ilmu-fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql - tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutilishi, o'zligini anglash vositasi ekanligini asoslaydi. Talabalarda intellektni rivojlantirish uchun ularni ko'proq mustaqil fikrlash, ta'limiy vaziyatlarda uchraydigan muammolarni echa olish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Kaykovus "Qobusnoma" asarida aql haqida fikr bildirib, inson qobiliyatining



Ақлнинг эмаслигини, inson aqlining tugʻma, yaʼni azaliy tabiiy va kasbiy, yaʼni muktasib-oʻrgatilgan aql kabilarga boʻlinishini bayon etadi. Muktasib aqlning takomillashib borishini, tabiiy aql ham muktasib aqlsiz rivojlanishi mumkin emasligini taʼkidlaydi va fikrlari bilan taʼlim-tarbiyaning ahamiyatiga katta eʼtibor berib, insonning kamolga erishishida aqliy shakllantirish gʻoyasini ilgari suradi. Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” asarida ilmni behuda egallamaslik, har bir shaxs jamiyat va oʻzi uchun foydasi tegadigan ilmlarni egallashi zarurligini taʼkidlaydi. Bilimning inson hayotidagi ahamiyati hamda ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini belgilashdagi oʻrni va rolini ochib berish bilan birga har bir kishi tomonidan maʼlum hunar sirlarini oʻzlashtirish foydadan holi boʻlmasligini uqtiradi. Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi oʻrni, bilimlarni oʻrganish asosida hosil boʻlgan aql va idrokning inson hayotidagi ahamiyati hamda aqliy tarbiya hamda uning mohiyatini yoritishga alohida eʼtibor qaratadi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish turli vaziyatlarda muammolarni mustaqil ravishda hal etish, qaror qabul qilish, hatti-harakatlarini muvofiqlashtirish kabi koʻnikmalarni shakllantirish muhimligini koʻrsatadi. Qadimgi Yunon olimi Platon “Davlat” asarida intellektni aqliy va hissiy bilish tarzida klassifikatsiya qiladi. Aqliy-bilish hissiy idrokdan xoli boʻlib, u aqlning oʻzi uchun amalga oshiradigan intellektual faoliyat turidir. Tafakkuriy bilish jarayonida aql, idrok qatnashadi, biroq u aqliy bilishdek aql uchun emas, balki hissiy narsalarni, obrazlarni, borliqni anglashdir. Arastu “yoshlarga jismoniy, axloqiy, aqliy tarbiya berish kerak, jonning oliy tomonlarini yaʼni aql va irodani kamol toptirish muhim”- deydi. Alloma inson uchun muhim, boʻlgan aqliy fazilatlariga bilim, donishmandlik, fahmlash va boshqalarga ham ahamiyat berish lozimligini uqtiradi. Ammo axloqiy fazilatlar aqliy fazilatlariga boʻysungan holda ifodalanadi. Olim insondagi faqat aqliy faoliyatni tan oladi. Demokrit fikricha, “aql toʻgʻri hatti-harakatlarga yoʻnaltirilmogʻi, bu esa bilimni doimo mukammallashtirib borish, tabiat qonunlari va odam xulqini oʻrganish zarur”. Talabalarda intellekt darajasi va ijodiylik oʻrtasidagi munosabat ularning shaxsiy xislatlari va ularning moslashuv usullariga taʼsir qiladi. Ijodiylikning nimaligini tushunishning oʻzi ijodiy harakatni talab qiladi. Ijodiylik qandaydir ahamiyatli va yangi narsaga erishish yaʼni insonlarning dunyoni oʻzgartirish uchun qilgan harakatlari sifatida tushuniladi. Shunday ekan, talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatning shakllanishida oʻquv-tarbiyaviy jarayon va atrof muhitning roli ham muhim sanaladi. Psixolog olimlar V.Shtern, J.Piaje, D.Veksler va boshqalar intellektga insonlarni yangi hayotiy sharoitlarga moslashashtiruvchi umumiy qobiliyat sifatida qaraydi. Ularning tadqiqotlari amerikalik maktab oʻquvchilarini longityud metodi orqali IQ intellekt koeffitsentini aniqlashga qaratilgan. Kuzatuvlar yillar davomida intellekt koeffitsenti yuqori boʻlgan sinalluvchilar



hayotda, faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishganligini ko'rsatgan. Demak, o'liy ta'lim jarayonida o'quv mashg'ulotlari, amaliyot va ijodiy to'garaklar talabalarning aqliy salohiyatni oshirishga qaratilishi muhim. Bu esa professor-o'qituvchilarga katta ma'suliyat yuklaydi. Satoshi Kanadzava umumiy intellektni aqlning bir turi sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha "umumiy intellekt bizga kundalik hayotda mavjud muammolarni hal qilishda yordam beradi". Talabalarni pedagogik faoliyatida duch keladigan turli vaziyatlarni echimini topishga o'rgatishda 4+2 ko'chma amaliyot samara beradi. Ular amaliyot davrida ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish bilan birga bevosita ishtirok ham etadi. Natijada amaliy tajribaga ega bo'ladi. Ch.Spiremen va Terstoun tomonidan akademik qobiliyatni namoyon bo'lishi kuzatilgan. Ular "shaxs biror kognitiv sohada muvaffaqiyatga erishayotgan bo'lsa, demak u boshqa sohalarda ham xuddi shunday zafarlarga erishadi" –degan g'oyani tavsiya etadi.

Muhokama va natijalar. Hayotga moslashishning asosiy omili shaxsdagi umumiy intellekt emas, balki vaqt o'tib, qobiliyatlar bir-biriga ta'sir eta boshlaydi degan xulosa qilish mumkin. X.Gardner fikricha "intellekt bir necha qobiliyatlar yig'indisi, shaxsda intellekt emas, balki bir necha xil ong mavjud degan fikr paydo bo'lgan. Agar shaxs biror sohada muvaffaqiyatga erishsa, demak u qolgan sohalarda ham yaxshi natijalarga erishadi". Talabalarda ijodiy-intellektual qobiliyatni rivojlantirish sirasiga pedagogik qobiliyatni ham kiritish maqsadga muvofiq. Pedagogik qobiliyat turli xil ta'limiy vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish, o'zini boshqara olish, o'quv materialini oddiy va hayotiy misollar bilan talaba ongiga singdirishdan iborat. R.Shtenbegr, R.Vagner shaxsda aqlning uch xil ko'rinishi mavjudligini asoslagan. 1.Murakkab masalani echishda akademik malakaning mavjudligi. Aqliy testlarning yagona to'g'ri javobini belgilash bilan izohlanadi.

2. Amaliy intellekt. Kundalik hayotda atrof-muhitga moslashish uchun muammo echimining eng optimalini tanlashga yordam beradi.

3. Ijodiy aql. Bunday tip vakillari o'zining ijodiy qobiliyatini namoyon etadi. Ijodiylik mustaqil fikrlashning yuqori shakli hisoblanib, qobiliyatning kreativligi tarzida talqin qilinadi. Dj. Gilford "ijodiylik-divergent qobiliyat jarayonidir"–deb ta'riflaydi. U o'zining kubik modelida tafakkur o'lchamlaridan operatsiyalar: bilish funksiyasi, xotira, divergent va konvergent tafakkur, baholash, mazmun: obrazli, belgili, semantik, xulqiy; natija: elementlar, darajalar, aloqa, munosabat, tizim, o'zgartirish, islohot: qo'llash, tatbiq qilishdan kelib chiqqan holda 120 ta qobiliyat turlarini ajratib bergan. Mazmun - bizning biron-bir narsa hakida o'ylashimiz. Operatsiya - kanday tarzdao'ylayotganligimiz. Natija - bu aqliy harakatlarimiz nimalarga olib keladi (ya'ni aqliy harakatimiz natijasi). Divergent va konvergent tafakkur turlari negizida ijodiy tafakkur yotishini asoslab beradi



Fransuz psixologi Levi-Bryul inson intellektual taraqqiyotining davrlarini belgilab bergan.

Ular:


1. Nutqgacha bo'lgan davr.
2. Nutq davri.
3. Sinkretizm davri.
4. Persepsiya davri idrok qilish.
5. Transduksiya davri. J.W.Getzels va P.W.Jackson ijodiylikni o'lchash uchun (Qr) koeffitsientini kiritgan.

Aqliy iste'dod esa bolaning guvohnomasidagi yoshiga nisbati qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarining miqdori bilan o'lchanadi. Ijodiylik ta'riflarini tahlil qilish orqali ularni olti turga ajratish mumkin: - geshtaltik- ijodiy jarayonni mavjud geshtaltlarni buzib, yaxshirog'ini tuzish; - innovatsion so'nggi natijaning yangiligi bo'yicha ijodiylikni baholashga yo'naltirilishi; - estetik yoki ekspressiv ijod qiluvchining o'zini-o'zi ifodalashi; - psixoanalitik ijodiylikni "U", "Men" va "Ideal - Men" o'rtaidagi o'zaro munosabat; - muammoli ijodiylikni masalalar echish jarayoni; - umuminsoniy bilimlar zaxirasini to'ldirish.

M.Wallach 11-12 yoshli o'quvchilarda intellekt va ijodiylik turlicha rivojlanganligi sababli ularni to'rt guruhga ajratib ko'rsatadi:

- intellekt va ijodiylikning yuqori darajasiga erishgan bolalar o'zlarini to'g'ri baholaydi, o'zini nazorat qiladi, yangi narsalarni kashf qilishga intiladi, baholashda mustaqillikka ega;
- aqliy darajasi yuqori lekin ijodiy qobiliyati past o'quvchilar maktabda muvaffaqiyatga erishadi, lekin boshqalardan sirlarini yashiradi, o'zini past baholaydi;
- intellektual darajasi past va ijodiylik ko'rsatkichi yuqori o'quvchilar xavotirli, e'tiborsiz, quyi ijtimoiy moslashuv bilan boshqalardan ajralib turadi;
- intellektual va ijodiyliqi quyi o'quvchilar vaziyatga oson moslashadilar, ijtimoiy intellektual darajasi yuqori, lekin sust sub'ektlar o'zlarini to'g'ri baholaydilar [75;48b]. Ilmiy adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, ijodiylik faoliyati bilan intellekt darajasi talabalarning shaxsiy jarayonlariga va ularning moslashuvchanlik usullariga ta'sir qiladi. Shveysariyalik psixolog J.Piaje intellektning kuyidagi rivojlanish bosqichlariga ajratadi:

1. Sensomotor intellekti (tug'ilishdan to 2 yoshgacha).
2. Operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha).
3. Konkret (yakqol) operatsiyalar (aqliy harakatlar) davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha).



Formal (rasmiy) operatsiyalar (aqliy harakatlarni amalga oshirish) davri talabalarni aqlan zukko, kreativ qobiliyatli, izlanuvchan, mustaqil mulohaza yurituvchi malakali mutaxassis siftida tayyorlash uchun qulay pedagogic-psixologik shart-sharoit va imkoniyat yaratish, maxsus tashkil etilgan, davr talablariga javob beruvchi o'quv-tarbiyaviy jarayonni olib borish maqsadga muvofiqdir. E.P.Torrance ijodiylik mezonlarini aniqlagan, uning fikricha "birinchi mezon- nostandartlik ijodiy qobiliyat va originallik bilan o'xshash bo'lib, o'ziga xoslikka nisbatan kengroq tushunchadir. Ikkinchi mezon - anglanganlikdir. Bunda talaba tomonidan muammo echimining anglanganligi nazarda tutiladi".


Ma'lumki psixologiya fanida shaxsda intellektni aniqlashga qaratilgan testlar o'tkaziladi. Intellektual test shaxsdan konvergent tafakkurni talab qiladi, kreativ esa divergent tafakkurni talab etadi. Nensi Kantor, Djon Kilstrom psixologiya faniga akademik intellektidan tashqari ijtimoiy intellekt tushunchasini kirititgan. Ijtimoiy intellekt- bu shaxsning ma'lum ijtimoiy vaziyatlarni tushunib etishi va uni engib o'tishidir. Talabalarda ham ijtimoiy intellektni rivojlantirish pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishiga asos bo'ladi. Chunki pedagog-tarbiyachilar ota-onalar, turli tashkilot mutaxasislari, eng muhimi tarbiyalanuvchilar bilan munosabatda bo'ladi. Ushbu jarayonda ulardan ijtimoiy intellekt taqozo etiladi. S.Epstayn, P.Maernnig ta'kidlashicha "ijtimoiy intellektning muhim bo'lagi bu emotsional intellektidir. Ya'ni, o'z emotsiyasini qabul qilish, ifodalash, tushunish va boshqarish qobiliyatidir. Emotsional etuk shaxslar o'z-o'zini angelaydi, ular depressiya, hissiyotlarini boshqara oladigan insonlar hisoblanadi". E.Torndayk, D.Goulman tomonidan emotsional intellektni rivojlanish bosqichlari aniqlangan. Ular 1920 yilda ijtimoiy intellekt boshqa aql shakllaridan ajratib turishini va uni "erkaklar va ayollarni, o'g'il va qizlarni tushunish munosabatlar va ularni insonda oqilona harakat qilish uchun boshqarish qobiliyati"-deb ta'riflaydi E.Torndayk tadqiqotida intellektual harakatlarning umumiy asoslari modelini ishlab chiqdi. 1930-yillar boshida Ch. Kant va Ye.Torndayk hissiy yuz ifodalari va og'zaki tavsif bilan hissiyotlarni anglash orqali ijtimoiy intellektni o'rganishga harakat qilgan. Dj.Maer P.Solovey, D.Krauzo tomonidan shaxsdagi emotsional intellektning to'rtta komponentini o'rganuvchi test ishlab chiqilgan. Mazkur testlar emotsiyani qabul qilish ya'ni inson yuzidan uni aniqlash, hissiyotni tushunish va o'zgarishini aytib berish, emotsiyani boshqarish va moslashish hamda ijodiy tafakkurda qo'llay olishga qaratilgan.

Rus psixologi D.B.Bogoyavlenskaya intellektual faoliyat va kasbiy faoliyat darajasi o'rtasida to'g'ridan- to'g'ri aloqani topdi. Muallifning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, ijodiy faoliyatni shakllantirish uchun faoliyatning operatsion tomonini ta'minlash etarli emas, balki, shaxsda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish zarur. Intellektual faoliyat shaxsning aqliy va motivatsion



shaharining birligi bo'lib, ijodkorlikni rivojlantirish, shakllantirishda axloqiy tarbiya ham amalga oshadi. Talabalarning ijodiy intellektual salohiyatini rivojlantirishda olimaning "Ijodiy maydon" metodidan foydalanish samara beradi. Bu metod orqali talaba ijod qilishga, yangicha g'oyalar yaratishga undadi. A.K.Markovanning fikriga ko'ra, "talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish ichki va tashqi ta'sirida amalga oshadi, ya'ni ijodiy qobiliyati, bilim olish va o'z ustida ishlash istagi, qadriyatlar va qiziqishlarini o'quv jarayoniga qaratilganligi, tashqi ta'sir jamiyat tomonidan ob'ektiv ehtiyoj va talabdan kelib chiqqan xolda, yuqori malakali mutaxassislariga qo'yilgan talablar. Talabalarning intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay ma'naviy, madaniy va ijodiy muhit, o'z-o'zini anglashi uchun ob'ektiv sharoit yaratish zarur. Ob'ektiv sharoit o'quv-tarbiyaviy jarayon va atrof-muhit sharoitlari bilan bog'liq. Bular sirasiga o'qitish vositalarining mavjudligi, metodik tavsiya va ko'rsatmalarning ilmiy asoslanganligi, auditoriyaning moddiy-texnik jihozlanganligi, guruhdagi ijobiy psixologik iqlim kiradi. V.I. Andreev tomonidan ijodiy shaxsning fazilatlarini aniqlangan. Uning ta'kidlashicha, "shaxsiy sifatlar ijodiy pozitsiyasini himoya qilish, axloqiy jihatdan namuna, halollik, insonparvarlik tamoyillariga rioya qilish, kamtarlik, jasorat, qat'iyatlilik, individual xususiyatlar, faoliyat sur'atlaridan iborat.

Xulosa .Talabalar ijodiy qobiliyatdan tashqari, o'z rejalari ijrosi, faolligik, tashkilotchilik qobiliyati va erishgan natijalarini himoya qilishda qat'iyatlili bo'lishi lozim. E..G'oziev "kreativlik" atamasini "aqliy ijodiylik" deb ta'riflaydi hamda uni mustaqil fikrlashning psixologik asosi sifatida o'rganadi. Aqliy ijodiylik haqida mulohaza yuritilganda fikrlashning nostandartligi, uning mustaqilligi va "kreativligi" nazarda tutiladi. Intellektual qobiliyatlar - bu shaxsning ta'sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchliligi va yaxlitligi, u to'g'risida keng ma'lumotlarga ega bo'lishdir. Shunindek, tafakkur o'zgaruvchanligi va tezkorligi (tez, xilma-xil, o'ziga xos), mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, sintez- tahlil-sintez, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o'z fikriga ega bo'lish bilan namoyon bo'ladi. U.Turdiqulov aqliy qobiliyatni shakllanishida irsiyat va atrof muhitning roli muhim ekanligini asoslaydi. Insonning dastlabki rivojlanish bosqichida irsiy omillar etakchi bo'ladi, lekin yillar davomida, ayniqsa, aqliy qobiliyatni rivojlanishiga atrof-muhit ham o'z ta'sirini ko'rsatib boradi. Talabalar nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishda atrof-muhitdan olgan taassurotlarga tayanadi. Chunki insonda aql-zakovatni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim omil ijtimoiy muhit sanaladi. Nafaqat ijodiy rivojlanish, balki shaxs rivojlanishining muhim omili, har qanday faoliyatdagi muvaffaqiyatning garovi, kishilar bilan muloqot, kundalik faoliyatdagi yutuqlar omilidir. M. Tilakova fikricha, "o'quvchilarni intellektual va ijodiy rivojlantirish



tarbiya jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, muhim milliy qadriyatlar, madaniy-tarixiy meros asosida o'quvchining-boy madaniy meros va tarixiy an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashga yo'naltiradi"

Tushunib etish aqliy qobiliyatning mustahkam tuzilmasi hisoblanadi. Aqliy faoliyatlar tizimi intellektni turli xil muammolarni echish, idrok qilish, individual yondashish, ya'ni, kognitiv uslub orqali tasavvur qilish, ijodiy topshiriqlar bajarish, "ijtimoiy- madaniy hayotga samarali qo'shilish, muvaffaqiyatli moslashish qobiliyatidir. Talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ta'limning amaliy va nazariy shakllarini innovatsion didaktik metodlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi natijada zamonaviy malakali shaxsni shakllantirishga erishiladi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida talabalarining intellektini rivojlantirish quyidagi xususiyatlarga bog'liq. Ya'ni: emotsional-irodaviy; amaliy va nazariy bilimlar integratsiyasi; hayotiy tajribalariga tayanishdan iborat. Tadqiqot davrida respublikamizda amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar, oliy ta'lim jarayonini sifatli tashkil qilish orqali talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash bilan bog'liq ko'plab masalalarni o'rgandik. Xususan, oliy ta'limni modernizatsiyalashning nazariy va ilmiy asoslari, tashkiliy metodik uslubiy jihatlari ham keng miqyosda tadbiq qilingan. Biroq maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim olayotgan talabalarida intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish muammosi etarlicha yoritilmagan.

Adabiyotlar:

1. Umumiy psixologiya "O'quv qo'llanma" Toshkent-2002 M. G. Davletshin, S. M. Tuychieva
2. Umumiy psixologiya "Darslik" Toshkent-2010 F.I.Xaydarov. N.I.Xalilova
3. Vygotskiy J.S. Psixologik inqirozning tarixiy ma'nosi: to'plangan asarlar. 6 jild. T.1/Dogwood ostida. A.R. Luriya, M.G. Yaroshevskiy. M.: Pedagogika, 1982 yil.
4. Bojovich L.I. Barkamol shaxsning shakllanishi va tuzilishi shartlarini psixologik tahlil qilish // Shaxsni shakllantirish va rivojlantirish psixologiyasi. -M., 1981.-S.
5. Ananov B.G. Zamonaviy inson fanining muammolari haqida. M.: Nauka, 1977.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada talabalar intellektual faoliyatini optimallashtirishning psixologik determinantlari tushunchasining mazmuni va mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, talabalarining intellektual rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье раскрывается содержание и сущность понятия психологических детерминант оптимизации интеллектуальной деятельности студентов. Обсуждались также психолого-педагогические особенности интеллектуального развития студентов.

SUMMARY

The article reveals the content and essence of the concept of psychological determinants of optimization of intellectual activity of students. The psychological and pedagogical features of the intellectual development of students were also discussed.



ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛИ

Қаҳҳорова М.

*Қарили Иқтисодиёт ва педагогика
университети ўқитувчиси*

Таянч сўзлар: инновация, интерактив, когнитив, касбий компетентлик, мулоқот, экспериментал, моделлаштириш.

Ключевые слова: инновация, интерактивная, познавательная, профессиональная компетентность, коммуникация, экспериментальная, моделирование.

Key words: innovation, interactive, cognitive, professional competence, communication, experimental, modeling.

Бугунги кунда ҳар бир давлатнинг жаҳон ҳамжамиятидаги ўрни унинг интеллектуал салоҳияти ҳамда кадрларни тайёрлаш сифати билан ўлчанади. “Бугунги кунда олдимизга қўйган буюк мақсадларимизга эришишимиз, жамиятимизнинг янгиланиши, ҳаётимизнинг тараққиёти ва истиқболи амалга оширилаётган ислохотларимиз, режаларимизнинг самараси, тақдири – буларнинг барчаси, авваломбор, замон талабларига жавоб берадиган юқори малакали, онгли мутахассис кадрлар тайёрлаш муаммоси билан чамбарчас боғлиқлигини барчамиз англаб етмоқдамиз”. Бутун жаҳон муаммосига айланган кадрлар тайёрлаш сифатини замон талабларига мослаштириш бизнинг республикамиз учун ҳам ўта долзарб ҳисобланади.

Муҳтарам Президентимиз томонидан амалга оширилаётган бу ишлар бизнинг ёшларимизнинг ақлий, интеллектуал имкониятларига катта ишончни билдиради.

Давлатлараро қаттиқ рақобат мавжуд бўлган даврда ҳар бир мамлакат барча соҳада рақобатбардош бўлишга ҳаракат қилади. Давлатнинг иқтисодий, техник ривожланишига қатор омиллар таъсир кўрсатиши табиий. Булар: мамлакатда мавжуд бўлган табиий ресурслар, унинг географик жойлашуви, таълим тизими, тарихи ва бошқа кўп омиллардир. Лекин мавжуд табиий ресурслардан оқилона фойдалана оладиган, давлатнинг



ISSN 2181-7138



Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

«МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»

№ 6/6

Нөкис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов, Р. Утепов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев

Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алақөз көшесі №54

Тел.: 224-23-00

e-mail: uznipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednauk@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 28.12.2023. Форматы 70x100¹/₈

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 27 . Нашр. т. Нускасы _____ Буйыртпа №